

MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA OILANING ROLI

Saida Karimova

Guliston davlat universiteti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy maydonida turli mafkuralarning geosiyosi kurashlari ketayotgani, O`zbekiston ham bundan chetda turish imkoniy yo`qligi, mafkuraviy tahdidlarni borongan sari avj olib borayotganligi tufayli mafkuraviy xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor berishimiz lozimligi va bu jarayonda oilaning roli, farzandlar tarbiyasi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: *Oila, tarbiya, sog` tanda-sog`lom aql,aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mafkuraviy xavfsizlik.*

ABSTRACT

The article analyzes the geopolitical struggles of different ideologies in the ideological arena of the world in the current context of globalization. Due to the fact that Uzbekistan has no way to stay out of it, and ideological threats are growing, we need to pay special attention to the issue of ideological security, and the role of the family in this process, the upbringing of children.

Keywords: Family, upbringing, common sense, mental upbringing, moral upbringing, ideological security.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется геополитическая борьба различных идеологий на идеологической арене мира в современных условиях глобализации. В связи с тем, что Узбекистану некуда оставаться в стороне, а идеологические угрозы нарастают, необходимо уделить особое внимание вопросу идеологической безопасности, и роли семьи в этом процессе, воспитании детей.

Ключевые слова: Семья, воспитание, здравый смысл, духовное воспитание, нравственное воспитание, идеологическая защищенность.

KIRISH

Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo`lishi, baxtli bo`lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo`lishi yoki zaif bo`lib xorlikka tushishi, baxtsizlk yukini tortishi, e`tibordan qolib, o`zgalarga tobe va qul asir bo`lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog`liq.

ABDURAUF FITRAT

Bashariyat tarixi shundan guvohlik beradiki, aniq va ishonchli maqsadni ko‘zlagan g‘oya bilan qurollangan xalq, jahon hamjamiyatida va siyosiy maydonda mustahkam tura oladi va ko‘zlagan maqsadiga erishishi muqarrar. Muayyan xalqning, millatning kuch-qudrati, ma’naviy salohiyati uning izchil g‘oyalar tizimi, milliy g‘oyasi, milliy mafkurasida namoyon bo‘ladi. Bu hususda, birinchi prezidentimiz I.Karimov: “...mafcura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan”[1], deb bejiz aytmagan edi.

Bugungi globallashuv sharoitida, dunyoning mafkuraviy maydonida turli mafkuralarning geosiyosiy kurashlari yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Mamlakatimiz ham bu jarayonlardan chetda emas. Yirtqich o‘z o‘ljasini poylaganni singari, salgina beparvolik tufayli tuynuk ochilib, xalqimiz, ayniqsa beg‘ubor va ishonuvchan yoshlarimiz ongini zaharlashga, qalbiga qabohat urug‘ini qadashga payt poylab turganlar bisyor. Bunga qo‘l qovushtirib qarab turib bo‘lmaydi. Darhol himoyalanish, kerak payti qarshi tura olish shart! Buning uchun avvalo, jamiyatni harakatlantiruvchi, olg‘a boshlovchi milliy g‘oyaga alohida e’tibor bermoq, yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalamoq lozim.

Oila - tarbiyaning o‘chog‘i. Murg`ak bolaning insoniy xislatlari, ezgu fazilatlari shakllanadigan maskan. Xalqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Zero, oila jamiyatning tayanchi, mustahkam asosi, kelajagini belgilovchi o‘ziga xos tuzilma, xalq ma’naviyati va ma’rifatining maktabidir. Insonning kelgusida kim bo‘lib voyaga yetishi, uning qanday shaxs bo‘lib shakllanishining dastlabki va asosiy elementlari oila muhitida shakllanadi. Oilada berilgan tarbiya muhim. Tarbiya faqat jismoniy emas, axloqiy va aqliy ham bo`lishi kerak. Qachonki mana shu uchlikni uyg`unlashtira olsakkina, ko‘zlagan natijaga erisha olamiz.

Bashariyat tarixida “Sog‘lom tanda sog‘lom ruh” iborasini qadimgi yunon yozuvchisi Yuvenal (eramizdan avvalgi 127-60 yillar) qo‘llagan bo‘lib, “ibodat qilaylikki, sog‘lom tanimizda sog‘lom (aql) ruh bo‘lsin” deb yozgan edi. Ingliz faylasufi Jon Lokk va fransuz ma’rifatparvari Jan-Jak Russolarda ham shunday fikrlarni uchratish mumkin.

Deylik, odam qandaydir kasallik bilan og`riyapti. Tanasi azoblanayapti. Bunday insonda aqliy va axloqiy kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Tanasini zaifligi tufayli fikrlari chalkashadi, ko`ngli noziklashib hayotdan alamzadalik natijasida axloqiy tarbiyasida qusurlar vujudga kela boshlashi mumkin. Xalqimiz tili bilan aytkanda,

“Sog‘ tanda sog‘lom aql”, “Toza palakda toza handalak”, “Sog‘lom odamning orzu-umidlari ham sog‘lom bo‘ladi”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o’ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo`lsin.

Boshqacha aytkanda, odamning fe’lu huyi harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir [2: 84].

Bola dunyoqarashi, shaxsiy axloqiy sifatlarining shakllanishi uning 5-7 yoshgacha bo‘lgan davrda uyg‘otilmasa, kelgusida uning o‘rnini to‘ldirish uchun qilingan ko‘p harakatlar samara bermasligi mumkin.Umuman, bolani illatlardan asrab, fazilatlarini shakllantirish lozim. Buni asosan oila muhitida amalga oshiriladi. Ming afsuslar bo`lsinki, bugungi globallashuv sharoitida turli hoyu xavaslar ortidan ergashib oila va uning kelajagiga bepisand munosabatda bo`layotgan yoshlar ko`payib ketmoqda.

Oilaning mustahkamligi – jamiyat barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim mezon. Xalqimizning o‘tmishda oilaga bo‘lgan munosabati uning qadriyat va an’analarida o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi tahdidlarning eng birinchi nishoni ana shu qo‘rg‘on – oilaga qaratilganligi bilan xatarlidir. Yildan yilga ajrimlar soni oshib borayotgani bu masalada juda katta tahdid namoyon bo‘layotganligini va unga qarshi shoshilinch choralar ko‘rish lozimligini taqozo etadi [3].

Oilaning darz ketishi, buzilishi birinchidan noto‘liq oilalarning ko‘payishiga, tirik yetimlar sonining oshishiga, bola tarbiyasida kemtiklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bugun G‘arb turmush tarzi targ‘ib qilayotgan “ommaviy madaniyat” mazkur jamiyatga qanchalar zarar yetkazganligini, qanchadan qancha muammolar keltirib chiqarganini ko‘rshimiz mumkin. Amerikalik faylasuf Frencis Fukuyamaning quyidagi fikri buning yaqqol dalilidir. “Men maktabda o‘qiganimda sinfimizda ota-onasi ajralishgan bitta qiz bor edi. Men shu qizga uylandim. Bugun mening farzandim o‘qiydigan sinfda bitta ota-onasi ajralishmagan bola bor. U ham bo‘lsa mening farzandim”.

Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida respublikamizda 19407 ta ajrim holati qayd etilgan bo‘lsa, yil yakunigacha yana 19822 ta ajrim bo`lib, yil davomida umumiyl 39227 ta oilalar rasmiy ajrashgan. Bu qonuniy ajrashganlar soni. Barbob bo`lib, ajrim yoqasida turgan oilalar qancha.

Har qaysi milatning, mamlakatning kelajagi ularning birdamligi, axilligi, tartib-intizomi, tinch-totuvligiga bog`liq. Bu tinchlik va totuvlik jamiyatning asosiy bo`g`ini-oilaga va undagi tartib-intizomga tayanadi. Qayerdaki oilalar farovon bo`lsa, farzandlar ota-onasiga bag`rida ulg`aysalar, ularning cheksiz mexri va ibratli tarbiyasidan bahramand bo`lsalar jamiyat farovon, davlat tinch va qudratli bo`ladi.

XULOSA

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Oila millat nasliy davomiyligini ta`minlovchi, milliy urf-odatlarimiz o`zida saqlovchi va asrovchi, avlodlarning qanday inson bo`lib yetishishishiga ta`sir ko`rsatuvchi, mafkuraviy xavfsizlikni ta`minlashga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi. Shuni hisobga olsak, eng avvalo oilada sog`lom muhit shakllanishiga, uning mustahkamligi va barqarorligiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan illatlarni aniqlash va ularga qarshi choralar ishlab chiqish lozim.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir. – T. 55-b.
2. Abdurauf Fitrat. OILA yoki oila boshqarish tartiblari. Ikkinci nashr. Toshkent, “Ma’naviyat” .: 2000 y. 84-b.
3. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta`minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.